



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI
BUYRUG‘I**

20 oktabr 2025 yil.

1189-son

Toshkent sh.

Biologlarning ixtisoslashtirish kursi bo‘yicha o‘qitish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4666-sonli qarori va Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020-yil 15-iyundagi “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 160-sonli buyrug‘i ijrosini bajarish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. 2025/2026 o‘quv yili uchun Toshkent davlat tibbiyot universiteti Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasida tashkil etilgan “Klinik laborator diagnostika” mavzusida 864 kredit-soat xo‘jalik hisobida ixtisoslashtirish kursida ilovada keltirilgan 15 nafar tinglovchilar o‘qish muddati 2025-yil 8-oktabrdan 2026-yil 27-martgacha etib belgilansin.

2. Ixtisoslashtirish kursini muvaffaqiyatli yakunlagan tinglovchilarga belgilangan nusxadagi sertifikat berilishi ta‘minlansin.

3. Ushbu buyruq ijrosining nazorati O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor K.N.Xaitov zimmasiga yuklatilsin.

Rektor



Sh.A.Boymuradov